

**DUKKAKLI O'SIMLIKLARNING AHAMIYATI.**

**Jo'ldasova Aynur Sabirovna**

ChDPU Tabiiy fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi

**Xolikova Moxichexra Azamatovna**

ChDPU Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrası o'qituvchisi

**Holbutayeva Zuxra Rayimjanovna**

Chirchiq shaxar kasb-hunar maktabi o'qituvchisi

[holiqova19811@mail.ru](mailto:holiqova19811@mail.ru)

Dukkakli o'simliklar – don hosili uchun ekiladigan, urug'i tarkibida oqsil miqdori yuqori bo'lgan o'simliklar hisoblanadi. Dukkakdoshlar- kapalakgullilar kenja oilasiga mansub o'simliklar bo'lib, ulardan tuproq unumdorligini oshirish uchun almashlab ekishsa foydalaniladi. Dunyo bo'yicha dukkaklilarning 17 turkumiga mansub 60 dan ortiq turi ma'lum. Osiyoda, jumladan O'zbekistonda o'ris-no'xat, soya, loviya, yasmiq, burchoq, vika, no'xat, lyupin va boshqa turlari tarqalgan. Bu o'simliklarning poyasi tik (no'xat), chirmashib (loviya), o'rmalab (vika) yoki yer bag'irlab (mosh, yasmiq) o'sadi. Barglari murakkab patsimon yoki panjasimon. Ildizi har xil shaklda, gul tuzilishi kapalakgullilarniki singari. Mevasi dukkak (2-9 urug'li). Urug'i mayda (mosh, yasmiq) va juda yirik, dumaloq, buyraksimon shaklda, batamom yoki nuqtali rangli po'stloq bilan o'ralgan. Dukkakdoshlar oilasiga yer sharining deyarli barcha qismida tarqalgan 12000 ga yaqin o'simlik turlari kiradi. Bu oila vakillarining ko'pchiligi bir, ikki va ko'p yillik o'tlardan iborat. Dukkakdoshlar orasida qisman yarim buta, buta va daraxtlar uchraydi. Oila vakillarining ildizi - o'q ildiz tizimli. Ildizida tugunak bakteriyalar hamkorlikda hayot kechiradi. Ular havodagi erkin azotni o'zlashtiradi. Tugunak bakteriyalar tuproqni azotli birikmalarga boyitib, tuproq hosildorligini oshiradi.

Dukkakli don ekinlarining xalq xo'jaligida foydalanishiga ko'ra to'rtta:

- oziq-ovqat (mosh, soya, loviya, ko'k no'xat, no'xat);
- yem-xashak (xashaki no'xat, vika, lyupin va boshqa);
- universal (burchoq, yasmiq);

-yashil o'g'it (alkoloidsiz lyupin) uchun ekiladigan guruhlariga bo'linadi.

Dukkakli don ekinlari ildizida azot to'plovchi o'simliklardir. Har gektar yerga 50-100 kg havodan azot to'plashi aniqlangan. Dukkakli o'simliklar yengil qumloq va qumloq tuproqlarda juda yaxshi o'sadi. Lyupinning ildizi qiyin eriydigan fosforli birikmalarni o'zlashtira oladi. Dukkakli don ekinlari doni tarkibida 21-50% oqsil, somonida 8-14% oqsil, uglevodlar, A, PP, E, B guruhiga mansub vitaminlar, aminokislotalar mavjud. Yurtimizda kuzgi bug'doy hosili yig'ishtirib olingandan so'ng, takroriy ekin sifatida mosh o'simligi ko'plab yer maydonlariga ekiladi. Dunyoda bugungi kunda takroriy ekin sifatida dukkakli-don ekinlari 91,6 mln. gektar maydonga ekilib, o'rtacha don hosildorligi 12,0 s/ga, yalpi hosil 206,4 mln tonnani tashkil etadi. Mosh ekiladigan maydonlar hajmi jihatidan jahonda soyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi (25 mln gektar). Respublikamizda esa har yili takroriy ekin sifatida 18-25 ming gektardan ortiq maydonlarda mosh yetishtiriladi. Mosh hosildorligi dunyo bo'yicha 5,3 mln. tonnani tashkil etib, moshni yetakchi yetishtiruvchi va iste'molchi davlat Hindiston hisoblanadi. Ushbu o'simlik bir yillik o'tsimon, o'simlikning kelib chiqish markazi Janubi-g'arbiy Osiyo bo'lib, u 5-6 ming yil avval qishloq xo'jaligida yetishtirila boshlangan. Mazkur ekin hozir ham Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Eron, Birma, Xitoy, Vetnam, Yaponiya, Afrika davlatlari, Janubiy Amerika davlatlari, shuningdek, Avstraliyada katta hajmlarda yetishtiriladi. Mosh O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Kavkaz va Janubiy Qozog'istonda (kichik maydonda) asosiy ekin yoki kuzgi bug'doydan keyin takroriy ekin sifatida ekiladi(1). Mosh *Phaseolus aureus* loviyaning (*Phaseolus*) bir turi bo'lib qimmatli oziq -ovqat ekinlaridan hisoblanadi. Oziq-ovqat uchun moshning urug'lari (doni) foydalaniladi. Donning tarkibida yaxshi hazm bo'ladigan ko'p miqdorda qimmatli oqsil (24-28 %) azotsiz ekstrakt moddalar, yog'lar (1-2 %), klechatka (4 - 6 %), qand moddasi , vitaminlar, temir, kaliy, fosfor, magniy, kalsiy, selen va kam miqdorda natriy mavjud. Donining kaloriya tarkibi taxminan 300 kkal.



### **Moshning shoxlanishi, g'unchalash va dukkakning hosil bo'lish fazalari.**

Moshda ko'p miqdorda miya, yurak va asab tizimi faoliyatini qo'llab-quvvatlab turuvchi barcha foydali moddalar — magniy, fosfor, kaliy mavjud. Agar iste'mol qilinadigan taomlar ro'yxatiga muntazam moshli ovqat qo'shilsa, stress holatlarni osonlik bilan o'tkazish va o'zini yo'qotmaslikka erishiladi, xotira va ko'rish qobiliyati yaxshilanadi, suyaklar va bo'g'imlar yanada mustahkamroq bo'ladi. Moshda allergiya va astmani yengishda yordam berish kabi shifobaxsh xususiyatlar ham bor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mamatov B.S., Suvonova G.A., Abdurashidova X.F. Dukkakli don ekinlarining ahamiyati// O'zbekistonda oziq-ovqat dasturini amalga oshirishda qishloq xo'jalik fani yutuqlari va istiqbollari konfrensiya to'plami. 2015 yil 20-21 noyabr, 1-qism
2. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari navlarining Davlat reyestri. T., 2013 y.
3. O'.P.Pratov va boshqalar. Botanika. Toshkent, "Ta'lim nashriyoti". 2010 y.
4. A.A.Matkarimova, T.X.Mahkamov, M.M.Maxmudova, X.Ya.Azizov, G.B.Vaisova "VNESHINVESTPROM" nashriyoti, 2019
5. М. А. Холиқова, & Ҳ. Х. Матниязова (2020). Асосий экин сифатида экилган айрим маҳаллий ва хорижий соя навларининг ҳосилдорлик кўрсаткичлари. ARES, (1), 291-296. doi: 10.24411/2181-1385-2020-00040

6.Холиқова, М. А., Матниязова, Х. Х., & Азимов, А. А. (2020). Такрорий экин сифатида экилган соянинг айрим маҳаллий ва хорижий навларининг морфоҳўжалик кўрсаткичлари. Ўзбекистон аграр фани хабарномаси, 110.

7.Kholiqova M.A., Matniyazova Kh.Kh.and Ismagilova G.S./ Morpho-economical Indicators of Some Local and Foreign Soybean Varieties Planted as Main Crops/. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192 7319-7321bet

8.Matniyazova H.Kh, Nabiyeв S. M, Abzalov M.F, Kholiqova M.A, Yuldashev O/ Some Physiological Indicators of Domestic and Foreign Soybean Varieties under Different Water Regimes/. International Journal of Science and Research (IJSR) ResearchGate Impact Factor SJIF Volume 8 Issue 9, September 2019. 389-392 bet.

9.Matniyazova, H., Nabiev, S.,Kholikova, M.,Mavlonova G. //Physiological and biochemical parameters of soybean genotypes under diverse water regimes//Sabrao Journal of Breeding and Genetics.2023, 55(4), страницы 1094–110826.

10.J.Shavkiyev,A.Azimov,A.Nabiyeв,S.Khamdullayev,S.Amanov. M.A.Kholikova, H.H.Matniyazova, U.Yuldashov /Comparative performance and genetic attributes of upland cotton genotypes for yield-related traits under optimal and deficit irrigation conditions/. SABRAO Journal of Breeding and Genetics 2 (53 (2) , 157-171 betlar.

11.H.H. Matniyazova, S.M. Nabiyeв, M.F. Abzalov, M.A. Kholiqova, O.H. Yuldashev /Some Physiological Indicators of Domestic and Foreign Soybean Varieties under Different Water regimes/.International Journal of Science and Research 8 (9), 2019 y. 389-392 bet.

12.M.Kholikova , Kh.Matniyazova “To study the amount of chloroplast pigment in the leaves of local and foreign soybean varieties grown as a repeat crop in the conditions of Navoi and Samarkand regions” Universum: ximiya i biologiya. 2022 y. 36-42 p.